Universitet Kengashining 2024-yil
1-noyabrdagi majlisi 6-sonli bayonnomasiga
2-ILOVA

Mazkur nizomga kiritilgan o‘zgartirishlar:
Universitet Kengashining 2026-yil 11-sentabrdagi 3-sonli bayonnomasining 1-ilovasi

Toshkent davlat yuridik universitetining yillik va davriy monitoringi haqida
NIZOM

Ushbu nizom O‘zbekiston Respublikasining ta’limga oid qonunchilik hujjatlariga va Toshkent davlat yuridik universiteti Kuzatuv kengashining universitetda sifatni ta’minlashga oid qarorlari hamda Toshkent davlat yuridik universitetida sifatni ta’minlash haqidagi nizomga muvofiq ishlab chiqilgan. Nizom Toshkent davlat yuridik universitetida yillik va davriy monitoringni tashkil etish va olib borishga doir munosabatlarni tartibga soladi.

Nizom oliy ta’limda sifatni ta’minlashga qaratilgan hamda yillik va davriy monitoringga doir mexanizmlarni qo‘llab-quvvatlovchi xalqaro standartlar va yo‘riqnomalarga muvofiq tarzda ishlab chiqilgan.

I bob. Umumiy qoidalar

1. Toshkent davlat yuridik universiteti (keyingi o‘rinlarda − universitet)ning yillik va davriy monitoring haqidagi nizomi (keyingi o‘rinlarda −nizom) universitetda akademik sifatni ta’minlashga doir ichki hujjatlarning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Nizom yillik va davriy monitoring prinsiplari, monitoring va tahlilni olib borish tartibini belgilab beradi.

2. Universitetda yillik va davriy monitoringdan ko‘zlangan asosiy maqsad − bu universitetda tatbiq etish mumkin bo‘lgan ijobiy tajribalarni hamda talabalarning ta’lim olish jarayoni bilan bog‘liq sifat va standartlarni yuqori bosqichga olib chiqish uchun takomillashtirish zarur bo‘lgan sohalarni aniqlab olishdir.

3. Universitet sifat va standartlarni yuqori bosqichga olib chiqish maqsadida muntazam ta’lim olish, o‘qitish, assessment, tadqiqot, innovatsiya va talabalarni qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishlarida ilg‘or tajribani samarali tarzda aniqlash va keng tatbiq etishga intiladi.

Yillik va davriy monitoring ilg‘or tajribalarni samarali almashish va o‘z vaqtida hamda hamkorlikka asoslanib chora-tadbirlarni belgilab olish orqali mavjud holatni qayta ko‘rib chiqish, refleksiyadan o‘tkazish (chuqur mushohada qilish) va yanada takomillashtirishga imkon beradi. Shuningdek, yillik va davriy monitoring universitetning strategik maqsadlariga mos bo‘lmagan kamchiliklarni erta aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan choralar ko‘rishga imkon beradi.

4. Mazkur nizom bilan belgilangan mexanizm barcha bo‘g‘inlardagi ijobiy tajribalarni muntazam ravishda aniqlash, ularni samarali tatbiq etish, ijobiy tajribaning ta’sirini tushunishga yordam beradi.

Nizom ta’lim dasturlari va ma’muriy tarkibiy bo‘linmalar faoliyatiga doir ma’lumotlardan kollegial va oqilona foydalanishni nazarda tutadi. Ushbu tartib universitetda ish uslubining o‘zgarib turishiga, ta’lim olish jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi qarorlarning qabul qilinishida professor-o‘qituvchilar, xodimlar va talabalarning ishtiroki uchun sharoit yaratib beradi.

Shu tariqa mazkur nizom ma’lumotlar tahlili va talabalar ishtirokiga asoslangan hamda rivojlanishtirish kerak bo‘lgan sohalarni tizimli aniqlab borishga xizmat qiluvchi yillik va davriy monitoringni tashkil etish va o‘tkazish tartibini belgilab beradi.

5. Mazkur nizom o‘qitishninng modul-kredit tizimiga asoslangan va/yoki muayyan daraja bilan yakunlanadigan ta’lim dasturlari, xususan, bakalavr, magistratura hamda oliy ta’limdan keyingi ta’lim dasturlari (ixtisosliklari)ga nisbatan tatbiq etiladi.

II bob. Asosiy tushunchalar

6. Mazkur nizomda quyidagi tushunchalardan foydalaniladi.

Refleksiya − ta’lim dasturlarining hamda ma’muriy tarkibiy bo‘linmalar faoliyatining samaradorligi yuzasidan chuqur mushohada yuritish jarayoni bo‘lib, u orqali professor-o‘qituvchilar va xodimlar ma’lumotlar tahlilidan kelib chiqib dalillarga asoslangan xulosaga kelish imkoniga ega bo‘ladilar.

Yillik monitoring − ta’lim dasturlari va ma’muriy tarkibiy bo‘linmalarning faoliyatini doimiy takomillashtirish maqsadida ularning sifati bilan bog‘liq holatni o‘rnatilgan tartibda davomli va tizimli o‘rganish va refleksiyadan o‘tkazish jarayoni.

Yillik monitoring hisoboti − ta’lim dasturi, shu jumladan, oliy ta’limdan keyingi dasturlar, shuningdek ta’lim oluvchilarning ta’lim olish jarayoniga ta’sir ko‘rsatuvchi, ularga xizmat ko‘rsatuvchi ma’muriy tarkibiy bo‘linmalar faoliyatining yillik tahlili aks etgan hisobot. U tegishincha ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish yoki muvaffaqiyat darajasi, mavjud holatning strategik maqsadlarga mos kelishi, manfaatdor tomonlarning fikr-mulohazalari va tizimni yanada takomillashtirish uchun tavsiyalarini o‘z ichiga oladi.

Davriy monitoring − universitetning akademik sifat kafolatining tarkibiy qismi hisoblanadi. Davriy monitoring ta’lim olish jarayoni sifatini ta’minlash va tizimni yanada takomillashtirish uchun imkoniyatlarni aniqlashga yordam beradi. Davriy monitoring har besh yilda bir marotaba ta’lim dasturi, shu jumladan, oliy ta’limdan keyingi dasturlar bo‘yicha o‘tkaziladi. Unda maxsus guruh tomonidan har bir ta’lim dasturi o‘rganib tahlil etiladi.

Davriy monitoring guruhi −universitet professor-o‘qituvchilari, xodimlari, kamida bir nafar talaba va boshqa oliy ta’lim muassasining bir nafar professor-o‘qituvchisidan iborat guruh. Mazkur guruh ta’lim dasturlarini tahlil etib, ilg‘or tajribalarni aniqlaydi va tavsiyalarni beradi.

Sifatni ta’minlash qo‘mitasi − universitetning turli tarkibiy tuzilmalar vakillari va boshqa manfaatdor shaxslardan iborat qo‘mita bo‘lib, u universitetda sifatni ta’minlash bilan bog‘liq hamda o‘qitish, ta’lim olish, talabalarni qo‘llab-quvvatlash yuqori standartlar asosida olib borilishini tartibga soluvchi nizomlarni ishlab chiqish va amalga oshirilishini ta’minlaydi.

Ta’lim dasturi yo‘nalishi rahbari − professor-o‘qituvchilar tarkibidan tayinlanadigan hamda Yurisprudensiya bakalavriat ta’lim dasturining fakultetlardagi yetakchisi. Ta’lim dasturi yo‘nalishi rahbari (keyingi o‘rinlarda −yo‘nalish rahbari) tegishli dekanga hisob beradi. Yo‘nalish rahbari Yurisprudensiya ta’lim dasturining tegishli fakultetda samarali va izchil o‘qitilishini ta’minlashga, monitoring va tahliliy faoliyatni olib borishga mas’uldir.

Ta’lim dasturi rahbari − professor-o‘qituvchilar tarkibidan bakalavr (Yurisprudensiya bakalavr ta’lim dasturi bundan mustasno) va magistratura ta’lim dasturining samarali va izchil o‘qitilishini, oliy ta’limdan keyingi ta’lim dasturining samarali va izchil o‘zlashtirilishini ta’minlashga hamda ta’lim dasturi bilan bog‘liq monitoring va tahliliy faoliyatni amalga oshirishga mas’ul shaxs.

Bakalavr va magistratura ta’lim dasturi rahbarlari tegishli fakulteti dekaniga hisob beradi.

Oliy ta’limdan keyingi ta’lim dasturlari rahbarlari Huquqiy tadqiqotlar oliy maktabi direktoriga hisob beradilar.

Dastur jamoasi −yo‘nalish rahbari va ta’lim dasturi rahbari yetakchiligida faoliyat olib boradigan tegishli ta’lim dasturining o‘qitilishi yoki o‘zlashtirilishida bevosita ishtirok etadigan professor-o‘qituvchilardan iborat guruh. Guruh sifatni ta’minlash jarayoniga, xususan, yillik va davriy monitoring bo‘yicha hisobotlarni shakllantirishga hissa qo‘shadilar.

III bob. Yillik va davriy monitoring prinsiplari

7. Yillik va davriy monitoring quyidagi prinsiplarga asoslanadi.

Ma’lumotlar (data)ga tayanish. Universitet strategiyasi talabiga asosan sifat va erishilgan yutuqlarni baholash va yanada takomillashishga bo‘lgan zaruratni aniqlashda tegishli bazaviy ma’lumotlar **(core data)**dan foydalaniladi. Ta’lim dasturi darajasida miqdorga doir ma’lumotlar **(quantative data)** sifatga doir ma’lumotlar **(qualitative data)** bilan to‘ldiriladi. Ishonchli ma’lumotlar asosli savollarni berish uchun zamin yaratadi hamda tezkorlik bilan chora ko‘rish hamda natijalarni birgalikda tushunish va ularni yaxshilab borishga imkon beradi.

Ochiqlik. Universitetda yillik va davriy monitoring jarayoni tegishli barcha professor-o‘qituvchilar va xodimlarga ma’lumotlarni ulashish orqali olib boriladi. Bunda ulashilgan ma’lumotlardan oqilona foydalaniladi. Ma’lumotlarni ulashish muammolarni birgalikda aniqlash va yechim topish, shuningdek, doimiy takomillashib borishga qaratilgan vazifalarni aniqlash va ularga ustuvorlik berish imkonini beradi.

O‘z vaqtida chora ko‘rish. Ma’lumotlar mavjud bo‘lgan holda ularni akademik siklning belgilangan bosqichida darhol va sinchikovlik bilan muntazam ravishda tahlil qilish xavflarni erta aniqlash va oldinroq choralar ko‘rishga olib keladi.

Faoliyatiga nisbatan tanqidiy yondashish. Professor-o‘qituvchilar va xodimlar fikr-mulohazalar (feedback)ni va konstruktiv tanqidni qabul qiladilar hamda faoliyatni takomillashtirish maqsadida tahlil qilib boradilar.

Aniq choralarni belgilash. Strategik maqsadlardan kelib chiquvchi ko‘rsatkichlarni yanada yaxshilash kerak bo‘lgan hollarda, aniq kim tomonidan va qaysi muddatda bajarilishi kerak bo‘lgan chora-tadbirlar belgilab olinadi. Bu akademik va ilmiy-tadqiqotlar sifatini yanada oshirish va ta’lim olish jarayonining yaxshilanishiga olib keladi.

Inklyuzivlik. Universitet ma’lumotlarni o‘z vaqtida tahlil qilish va talabalar bilan hamkorlik orqali rivojlanishga intiladi. Bu talabalarga universitetda muvaffaqiyatli va samarali ta’lim olishga kafolat beradi. Yillik monitoring faoliyati va undan kelib chiqadigan maqsadli chora-tadbirlar ma’lum kategoriyadagi (masalan, jinsi, yoshi va h.k.) talabalarning muvaffaqiyatli ta’lim olishlariga to‘sqinlik qilayotgan omillarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratiladi.

Ta’lim oluvchilar monitoring jarayonida ishtirok etadilar. Bu jarayonda ta’lim oluvchilar fikr-mulohazalari (feedback) orqali ishtirok etadilar. Shuningdek, davriy monitoring jarayonida ta’lim oluvchilar davriy monitoring guruhi a’zosi sifatida ishtirok etadilar hamda davriy monitoring guruhi bilan uchrashuvlarda asosiy manfaatdor taraf sifatida qatnashadilar.

IV bob. Yillik monitoringni olib borish tartibi

8. Yillik monitoringni olib borish yillik monitoring hisobotini tayyorlash va uni ko‘rib chiqishga asoslanadi. Buning uchun ta’lim dasturlarining yillik monitoringi va ma’muriy tarkibiy bo‘linmalar faoliyatining yillik monitoringi hisobotlari shakllari ishlab chiqilgan.

Ushbu yondashuv ta’lim va ilmiy tadqiqotga asolangan dasturlar hamda ta’lim oluvchilarning ta’lim olish jarayoniga bevosita va bilvosita daxl qiladigan xizmatlarning yillik monitoringdan o‘tkazilishini kafolatlaydi.

9. **Ta’lim dasturlarining yillik monitoringi.** Dastur jamoasi o‘quv yili davomida taqdim etiladigan ma’lumotlar asosida modullar va ta’lim dasturlari tahlilini amalga oshiradilar. Ma’lumotlar ushbu nizomning 1-ilovasi bilan tasdqilangan yillik monitoring hisoboti shaklini to‘ldirish uchun asos bo‘ladi.

10. Ta’lim dasturlarining yillik monitoringi hisoboti yo‘nalish rahbari yoki dastur rahbari tomonidan dastur jamoasi vakillari va tegishli modullardan dars beradigan boshqa professor-o‘qituvchilarni jalb etgan holda to‘ldiriladi.

11. Ta’lim dasturlarining yillik monitoringi hisoboti sho‘ba majlisida, fakultet kengashida ko‘rib chiqiladi va Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limiga taqdim etiladi.

12. Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi ta’lim dasturlari, oliy ta’limdan keyingi ta’lim dasturlari bo‘yicha yillik monitoring hisobotlarini ko‘rib chiqadi. Bo‘lim ta’lim dasturlarining yillik monitoring belgilangan tartibda amalga oshirilganini tekshirib, monitoring natijalari yuzasidan universitet kengashiga axborot kiritadi. Axborotda ilg‘or tajribalar va/yoki yanada takomillashtirish kerak bo‘lgan yo‘nalishlar umumlashtiriladi. Universitet kengashi axborot yuzasidan tegishli qaror qabul qiladi.

13. **Ma’muriy tarkibiy bo‘linmalar uchun yillik monitoring hisoboti.** Ma’muriy tarkibiy bo‘linmalar boshliqlari o‘quv yili davomida taqdim etiladigan ma’lumotlar asosida o‘z faoliyatining sifati tahlilini amalga oshiradilar. Bu ma’lumot mazkur nizomning 2-ilovasi bilan tasdqilangan shaklni to‘ldirishda asos bo‘lib xizmat qiladi.

14. Yillik monitoring hisoboti tegishli bo‘linma xodimlarini jalb etgan holda ma’muriy tarkibiy bo‘linma boshliqlari tomonidan shakllantiriladi. Ma’muriy tarkibiy bo‘linmalarning yillik monitoringi hisoboti avval bo‘linma tomonidan muhokama etiladi hamda Tashkiliy nazorat va strategik rejalashtirish boshqarmasiga taqdim etiladi.

15. Tashkiliy nazorat va strategik rejalashtirish boshqarmasi ma’muriy tarkibiy bo‘linmalar faoliyatining yillik monitoring hisobotlarini ko‘rib chiqadi. Boshqarma ta’lim dasturlarining yillik monitoring belgilangan tartibda amalga oshirilganini tekshirib, universitet kengashiga monitoring natijalari yuzasidan axborot kiritadi. Axborotda ilg‘or tajribalar va/yoki yanada takomillashtirish kerak bo‘lgan yo‘nalishlar umumlashtiriladi. Universitet kengashi axborot yuzasidan tegishli qaror qabul qiladi.

16. Ta’lim dasturlari va ma’muriy tarkibiy bo‘linmalar faoliyatining yillik monitoringi quyidagi yettita bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqich − ma’lumotlarni taqdim etish. Yillik monitoring ma’lumotlarni yig‘ishdan boshlanadi. Ta’lim dasturlari uchun ma’lumotlar ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari, fikr-mulohazalari (feedback), ta’lim dasturini baholash natijalari va boshqa ma’lumotlardan iborat. Dastur jamoasi o‘zida mavjud bo‘lgan ma’lumotlardan (masalan, dastur jamoasi tomonidan olib borilgan so‘rov natijalari, talabalar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalar) foydalanadi.

Ma’muriy tarkibiy bo‘linmalarga tegishli ma’lumotlar esa odatda tegishli ma’muriy tarkibiy bo‘linmaning xizmatlaridan foydalangan ta’lim oluvchilar soni, ularning demografik

tahlili va ta’lim oluvchilarning fikr-mulohazalari va boshqa turdagi ma’lumotlardan iborat. Ma’muriy tarkibiy bo‘linmalar o‘zida mavjud bo‘lgan ma’lumotlardan foydalanadi.

Talabalarning nazorat ishlari natijalari, o‘zlashtirish va darslarda ishtirok etish bilan bog‘liq ko‘rsatkichlari hamda tegishli boshqa ma’lumotlar O‘quv-uslubiy boshqarma (Registrator ofisi) tomonidan dastur jamoasi va ma’muriy tarkibiy bo‘linmaga har yili sentabr oyining oxiriga qadar taqdim etiladi.

Ikkinchi bosqich − ma’lumotlarni tahlil etish. Ma’lumotlar tegishincha yo‘nalish rahbari/ta’lim dasturi rahbari va dastur jamoasi, ma’muriy tarkibiy bo‘linma tomonidan tahlil etiladi hamda tegishli tizimdagi kuchli taraflar, kamchiliklar, takomillashtirish uchun imkoniyatlar va har qanday yuzaga kelayotgan muammolar refleksiyadan o‘tkaziladi.

Bu jarayon o‘quv yili oxirida boshlanib, nazorat ishlari natijalariga doir ma’lumotlar taqdim etilganida tahlil natijalari qayta ko‘rib chiqiladi.

Uchinchi bosqich −yillik monitoring hisobotini shakllantirish. ma’lumotlarning tahlili natijasida aniqlangan holatlar yillik monitoring hisoboti shakliga kiritiladi.

Hisobotda tegishli ta’lim dasturi va ma’muriy tarkibiy bo‘linmalar faoliyatining umumiy holati va takomillashtirish zarur bo‘lgan muhim soha (yo‘nalish)lar qamrab olinadi.

To‘rtinchi bosqich − yillik monitoring hisobotiga SMART tamoyiliga asoslangan chora-tadbirlarni kiritilganiga ishonch hosil qilish. Yillik monitoring hisobotida SMART (Specific −aniq, Measurable −o‘lchab bo‘ladigan, Achievable −erishib bo‘ladigan, Relevant − masalaga taalluqli, Time-bound −muayyn muddat bilan bog‘liq) tamoyiliga asoslangan chora-tadbirlar kiritiladi. Bu takomillashtirishga qaratilgan rejalarni aniq va bajarib bo‘ladigan tarzda bayon etilishini ta’minlaydi.

Beshinchi bosqich −yillik monitoring hisobotini topshirish. Ta’lim dasturlarining yillik monitoring hisobotlari har yili 10-oktabrga qadar tegishincha dekanlar, Huquqiy tadqiqotlar oliy maktabi tomonidan Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limiga, ma’muriy tarkibiy bo‘linmalarning yillik monitoring hisobotlari bo‘lim boshliqlari tomonidan Tashkiliy nazorat va strategik rivojlantirish boshqarmasiga taqdim etiladi.

Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi va Tashkiliy nazorat va strategik rejalashtirish boshqarmasi taqdim etilgan hisobotlarni ularni o‘rnatilgan standartlarga muvofiq shakllantirilgani nuqati nazardan ko‘rib chiqadi.

Hisobotda chora-tadbirlarni amalga oshirish muddatlari ko‘rsatib o‘tiladi. Muddatlar Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi, Tashkiliy nazorat va strategik rejalashtirish boshqarmasi tomonidan asossiz tarzda uzoq yoki o‘ta qisqa deb topilsa, ularni o‘zgartirish talab etilishi mumkin.

Oltinchi bosqich − Universitet kengashiga axborot tayyorlash. Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi va Tashkiliy nazorat va strategik rejlashtirish boshqarmasi taqdim etilgan yillik monitoring hisobotlari asosida universitetning tegishlicha akademik, ilmiy-tadqiqot hamda ma’muriy faoliyatining holatini umumlashtiruvchi axborotni 20-oktabrgacha tayyorlaydi.

Yettinchi bosqich − yillik monitoring siklini yakunlash. Axborot Universitet kengashining navbatdagi majlisida eshitiladi va tegishli qaror qabul qilinadi. Bunda axborotning universitet maqsad va startegik vazifalariga mos kelishiga alohida e’tibor qaratiladi. Mazkur bosqichda o‘quv yili uchun yillik monitoring sikli yakunlanadi.

17. Yillik monitoring universitetning o‘quv yilining belgilangan davri mobaynida to‘liq va puxta tahliliy faoliyat olib borishini ta’minlaydi.

Biroq, ayni vaqtda universitetda zarur hollarda yillik monitoringdan boshqa hollarda ham ma’lumotlar tahlil etilishi va tezkor hal etilishi kerak bo‘lgan sohalar aniqlanib, tegishli choralar ko‘rilishi mumkin.

V bob. Ta’lim dasturlarining davriy monitoringini olib borish

18. Ta’lim dasturlarining davriy monitoringi universitetdagi akademik, shu jumladan, ilmiy tadqiqotga doir standartlar va sifat holati kutilgan darajada ekaniga ishonch hosil qilish va professor-o‘qituvchilarga ta’lim dasturlarining belgilangan standartlarga mos kelishini namoyon etishga imkon beradi.

Davriy monitoring universitet va boshqa oliy ta’lim tashkiloti professor-o‘qituvchilarning mavjud holatni tanqidiy tahlillari, o‘zini o‘zi baholash, manfaatdor taraflar, xususan, talabalar, ish beruvchilar va bitiruvchilarning tanqidiy fikr-mulohazalaridan foydalangan holda ta’lim olish (o‘zlashtirish) hamda tegishli o‘qitishning sifatini ta’minlashga qaratiladi.

Davriy monitoringda ta’lim dasturlarining yillik monitoring natijasida joriy etilgan o‘zgarishlarning umumiy ta’siri baholanadi. Davriy monitoring qo‘llab-quvvatlashga va konstruktiv tanqidiy baholashga qaratiladi. Bunda ta’lim dasturlarini yanada takomillashtirishga xizmat qiladigan tavsiyalar beriladi. Bu professor-o‘qituvchilar, tarkibiy tuzilmalar va universitet ma’muriyatini takomillashtirish zarur bo‘lgan sohalarni aniqlash va tegishli masalalarni hal etish uchun mavjud amaliyotni refleksiyadan o‘tkazishga undaydi.

19. Davriy monitoring universitet miqyosida barqaror va tizimli ravishda mazkur nizomda belgilangan tartib bo‘yicha o‘tkaziladi. Ta’lim dasturlarining davriy monitoringi 5 yilda bir marotaba o‘tkaziladi.

Davriy monitoringning maqsadlarini quyidagilar tashkil etadi:

ta’lim olish va o‘qitishning sifati davlat ta’lim standartlari, tegishli nizomlar, tan olingan xalqaro standartlar talabiga muvofiq kelishiga ishonch hosil qilish;

ta’lim oluvchilarning dasturdan kutilgan natijalarga erishganliklariga ishonch hosil qilish;

maqsadga muvofiq bo‘lgan hollarda talabalarning taqdiqot faoliyatiga jalb etilgani va olingan tadqiqot natijalarining ta’lim berish jarayoniga joriy etilgani bo‘yicha tasdiqlovchi hujjatlar bilan tanishish;

professor-o‘qituvchilarning profillarini o‘rganish;

har bir dastur bo‘yicha sarflanadigan byudjetning mutanosibligi va resurslarning yetarli ekanini baholash;

talabalarga belgilangan akademik xizmatlarning ko‘rsatilishini tasdiqlash;

ta’lim dasturiga talabalarni qabul qilish, talabalarning kursdan kursga o‘tishi, o‘qishni davom ettirayotgan, talabalar safidan chetlashtirilgan va o‘z ixtiyoriga binoan talabalar safini tark etgan talabalar, talabalarning ta’lim dasturidan qoniqish darajasi va bitiruvchilarning karyera manzillarini o‘rganish;

innovatsiyalarni, ilg‘or tajribalarni hamda yanada takomillashtirishga qaratilgan imkoniyatlarni aniqlash.

20. Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi davriy monitoring guruhi tarkibi va davriy monitoringni olib borish jadvalini tuzadi. Bunda professor-o‘qituvchilarning ish hajmi, ta’lim

dasturlarining kutilayotgan akkreditatsiyasi va universitetning boshqa vazifalari hisobga olinadi. Davriy monitoring guruhi tarkibi va davriy monitoringni olib borish jadvali, shu jumladan davriy monitoringning sanasi kamida 6 oy oldin universitet rektori buyrug‘i bilan tasdiqlanadi va jarayonga jalb etiladigan professor-o‘qituvchilarga yetkaziladi.

21. Dekanlar fakultetga taalluqli ta’lim dasturining davriy monitoringini belgilangan tartibda olib borilishini ta’minlashga mas’uldirlar .

22. Davriy monitoring quyidagi bosqichlardan iborat:

tayyorgarlik ko‘rish;

o‘zini o‘zi baholash;

davriy monitoring guruhi tomonidan o‘rganish o‘tkazish;

davriy monitoring guruhining hisoboti yuzasidan javob berish;

davriy monitoring va chora-tadbirni taqsdiqlash;

chora-tadbirlar va berilgan tavsiyalarni amalga oshirish.

23. **Tayyorgarlik bosqichi**. Tegishli fakultet dekani boshchiligida o‘zini o‘zi baholash guruhi tashkil etiladi. Oliy ta’limdan keyingi ta’lim dasturlari bo‘yicha o‘zini o‘zi baholash guruhi Huquqiy tadqiqotlar oliy maktabi direktori tomonidan tashkil etiladi.

O‘zini o‘zi baholash guruhining birinchi majlisida davriy monitoringni olib borish muddatlari va amalga oshirish kerak bo‘lgan harakatlar muhokama qilinadi, vazifalar taqsimlab olinadi.

Davriy monitoring guruhi Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi tomonidan tashkil etiladi. Guruhga manfaatlar to‘qnashuvini inobatga olgan holda malaka va tajribaga ega shaxslar kirtiladi. Xususan, guruhga quyidagilar kiritiladi:

ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi tomonidan guruhga rahbarlik qilish uchun tayinlanadigan fakultet dekani;

tadqiqot va pedagogik parfoliosi yuqori darajada bo‘lgan ikki nafar professor-o‘qituvchilar. Bir nafar nomzod tegishlicha Fakultet kengashi yoki Tadqiqot qo‘mitasi tomonidan tavsiya etilishi mumkin. Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi tanlov mezonlarini mustaqil ravishda ishlab chiqadi va munosib nomzodlarni tanlab oladi. Bunda bo‘lim har qanday manfaatlar to‘qnashuvining oldini oladi hamda shaffoflik va xolislik tamoyillariga rioya qiladi;

tegishlicha Talabalar assotsiatsiyasi yoki Yosh olimlar kengashining taqdimiga binoan bir nafar bakalavr talabasi, magistratura talabasi, oliy ta’limdan keyingi ta’limda ta’lim oluvchi (davriy monitoring o‘tkazilayotgan ta’lim dasturi ta’lim oluvchisi bo‘lmagan);

strategik hamkor bo‘lmagan boshqa oliy ta’lim muassasasidan kamida bir nafar sohaga doir professor-o‘qituvchi;

strategik hamkor bo‘lmagan ish beruvchi tashkilotdan sohaga doir mutaxassis.

24. **O‘zini o‘zi baholash bosqichi.** O‘zini o‘zi baholash guruhi o‘zini o‘zi baholash hisobotini tayyorlaydi. Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi guruh a’zolariga o‘zini o‘zi baholash hisobotini tayyorlash bo‘yicha yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi. Ishchi guruh o‘zini o‘zi baholash metodi sifatida SWOT tahlil yoki tahlil etishning boshqa metodlaridan foydalandi. Davriy monitoring guruhiga o‘zini o‘zi baholash hisoboti topshirilganida hisobotda ko‘rsatilgan holatlarni isbotlovchi dalillar ham taqdim etiladi. Bu davriy monitoring guruhi a’zolariga, xususan, tashqi manfaatdor taraflarga hisobotda qayd etilgan holatlarni to‘liq tushunib yetishga yordam beradi.

Davriy monitoring guruhi tashrifidan kamida 6 hafta oldin o‘zini o‘zi baholash hisoboti tegishli dekanning imzosi bilan birgalikda Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limiga taqdim etiladi.

Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi hisobotda talab etilgan ma’lumotlarning yetarli ekani va mazkur nizom talabalariga muvofiqligi nuqtai nazaridan ko‘rib chiqadi va uni davriy monitoring guruhiga yuboradi.

Davriy monitoring guruhi o‘zini o‘zi baholash hisobotini bir oylik muddatda ko‘rib chiqadi va davriy monitoringni o‘tkazish uchun universitetga tashrifi davomida alohida o‘rganish maqsadga muvofiq bo‘lgan sohalarni belgilab oladi. Mazkur bosqichda davriy monitoring guruhi uchun qo‘shimcha hujjatlar kerak bo‘lganda tegishli fakultet dekanlari yoki ta’lim dasturi rahbarlaridan so‘rab olishi mumkin.

25. **Davriy monitoring guruhining tashrifi va hisoboti.** Davriy monitoring guruhining tashrifi tegishli fakultet dekanlari tomonidan tashkil etiladi. Bunda fakultet dekanlari tomonidan guruhga zarur ma’lumotlar taqdim etiladi.

Davriy monitoring guruhining tashrifi bir kun davom etadi. Ayni bir tashrif doirasida ikki yoki undan ortiq ta’lim dasturlarining davriy monitoringi amalga oshirgan hollar bundan mustasno.

Tashrif davomida davriy monitoring guruhi akademik sifatni ta’minlash va doimiy rivojlanishga intilish darajasi, o‘quv rejalari va modul sillabuslari, ta’lim olish yoki o‘zlashtirish va o‘qitish, professor-o‘qituvchilar uchun yaratilgan shart-sharoitlar, ta’lim oluvchilarni qo‘llab-quvvatlash tizimi va ta’lim dasturlarini o‘qitish yoki yetkazish va ta’lim oluvchilar sifatli ta’lim olishini doimiy ravishda ta’minlanishi bilan bog‘liq boshqa jihatlarga e’tibor qaratiladi.

Tashrif doirasida odatda mazkur nizomning 3-ilovasida keltirilgan namunaviy tashrif dasturiga binoan professor-o‘qituvchilar, ma’muriyat vakillari, ta’lim oluvchilar, shu jumladan sho‘ba va talabalar hamda fakultet va talabalar qo‘mitasi a’zolari bo‘lgan talabalar, ish beruvchilar bilan uchrashuvlar o‘tkaziladi va tegishincha darslar kuzatiladi.

Tashrifdan so‘ng bir oy ichida davriy monitoring guruhi tashrif natijalari, o‘zini o‘zi baholash hisoboti va chora-tadbirlar dasturiga asosan umumiy tahlil natijalari yuzasidan o‘z xulosasini tayyorlaydi. Xulosada ta’lim dasturi bilan bog‘liq amalga oshirsh zarur bo‘lgan shartlar, tavsiyalar va aniqlangan ilg‘or tajribalar ko‘rsatib o‘tiladi.

Davriy tahlil guruhi xulosada ko‘rsatilgan talablar yoki tavsiyalarni amalga oshirishning muddatlarini belgilaydi.

26. **Ta’lim dasturi jamoasi tomonidan davriy monitoring guruhining hisobotiga javob berilishi.** Xulosa loyihasini olgach bir oylik muddat ichida ta’lim dasturi jamoasi tomonidan davriy monitoring hisoboti loyihasida ko‘tarilgan masalalar yuzasidan javob tayyorlanadi va chora-tadbirlar ishlab chiqiladi. Bu faktik xatolarni to‘g‘irlashga imkon beradi. Javob davriy monitoring guruhiga yuboriladi.

Javob tegishli fakultet dekan(lar)i tomonidan ma’qullanib davriy monitoring guruhiga yuboriladi.

27. **Hisobot va chora-tadbirlarni tasdiqlash.** Davriy monitoring guruhi professor-o‘qituvchilarning javobini olgach 15 ish kuni ichida hisobotni to‘liq yakuniga yetkazib, uni dastlabki muhokama qilish uchun Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limiga taqdim etadi. Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi hisobot bilan tanishib uni shakllantirishning barcha talablari qanoatlantirilgan deb hisoblasa, hisobot va chora-tadbirlarni tasdqilash uchun Universitet kengashi muhokamasiga kiritadi.

28. **Ta’lim dasturini takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan chora-tadbirlar va tavsiyalarni amalga oshirish**. Universitet kengashi tomonidan hisobot va chora-tadbirlar tasdqilangach, dastur jamoasi va tegishli fakultet dekani davriy monitoring hisobotidagi tavsiyalar

va chora-tadbirlar belgilangan muddatlar oralig‘ida bajarilishini ta’minlashlari shart. Bu borada amalga oshirilgan ishlarning natijalari navbatdagi yillik monitoring hisobotida aks ettirish orqali unga integratsiya qilinadi.

VI bob. Yakunlovchi qoidalar

29. Mazkur nizom va uni amalga oshirish bilan bog‘liq masalalar borasida Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limiga murojaat qilish mumkin.

30. Nizom belgilangan tartibda qayta ko‘rib chiqiladi va zaruratga ko‘ra tegishli o‘zgartish hamda qo‘shimchalar kiritiladi.

Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi nizomning qayta ko‘rib chiqilishiga tashkiliy nuqtai nazardan mas’uldir.

Nizomga o‘zgartish va qo‘shimchalar Universitet kengashidan avval Sifatni ta’minlash qo‘mitasida muhokama qilinadi.

Yillik monitoring va davriy tahlil
haqidagi nizomga
1-ilova

TDYU ta’lim dasturlarining yillik monitoringi hisoboti shakli

Hisobotning qamrov doirasi. Barcha ta’lim dasturlari − o‘qitiladigan (bakalavr, magistratura) va ilmiy tadqiqotga asoslangan oliy ta’limdan keyingi ta’lim dasturlari −har o‘quv yilida yillik monitoringdan o‘tkaziladi va natijalari Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limiga taqdim etiladi. Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi tomonidan ta’lim dasturlari monitoringi natijalari yuzasidan umumlashtirilgan axborot Universitet kengashiga kiritiladi.

Hisobot hajmi. Ta’lim dasturlarining yillik monitoringi hisoboti qisqa tarzda yozilishi kerak (tegishli shakllardagi so‘zlar soniga nisbatan belgilangan cheklovga qarang). O‘rinli joylarda natijalarni ro‘yxat shaklida (bullet points) yozish mumkin. Hisobot shaklini to‘ldirishdan asosiy maqsad ta’lim dasturi yo‘nalishi/ta’lim dasturi rahbarlari hamda dastur jamoasining birgalikda ta’lim dasturlarini takomillashtirish uchun zarur bo‘lgan muhim jihatlarni aniqlashlari hamda universitet miqyosida va quyi bo‘g‘inda ilg‘or amaliyot va takomillashtirish kerak bo‘lgan yo‘nalishlarni aniqlashga hissa qo‘shishlariga erishishdir.

Hisobotni shakllantirishda ma’lumotlar (data)dan foydalanish. Hisobot tegishli ma’lumotlarni refleksiyadan o‘tkazish (chuqur mushohada qilish)ni o‘z ichiga oladi. Bunday ma’lumotlarga ta’lim oluvchilarning demografik ma’lumotlari, ta’lim dasturiga qabul, ta’lim oluvchilarning kursdan kursga o‘tishi, o‘qishni davom ettirayotgan, ta’lim oluvchilar safidan chetlashtirilgan va o‘z ixtiyoriga binoan ta’lim oluvchilar safini tark etgan ta’lim oluvchilar soni kiradi. Hisobotda, shuningdek ta’lim oluvchilarning umumiy o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari, assessmentga doir umumiy natijalar, ta’lim oluvchilarning ta’lim dasturidan qoniqish darajasiga doir son va sifat ko‘rsatkichini aks ettiruvchi ma’lumotlar hamda bitiruvchilarga doir natijalar tahlil etiladi. Imkon bo‘lganda avvalgi o‘quv yilida amalga oshirilgan yillik monitoring bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar ham hisobga olinishi kerak. Xususan, ilg‘or tajriba qanday tarzda keng tatbiq etilgani va tegishli choralar qanday tarzda ko‘rilgani haqida to‘xtab o‘tilishi kerak.

Qo‘shma ta’lim dasturining yillik monitoringida hamkor oliy ta’lim tashkilotida qo‘shma ta’lim bo‘yicha tahsil olayotgan talabalarning ta’lim dasturini o‘zlashtirishi bilan bog‘liq ma’lumotlar (data)dan ham foydalanadi.

Hisobot individual talabaga doir ma’lumotni aks ettirmasligi kerak.

Hisobotni to‘ldirish muddati: Fakultet dekani/Huquqiy tadqiqotlar oliy maktabi direktori tomonidan belgilab beriladi.

Ta’lim dasturi nomi:	
Hisobotni shakllantirganlar haqida ma’lumot (Hisobotni yozishga hissa qo‘shganlar):	
O‘quv yili:	
Hisobot sanasi:	
1. Avvalgi o‘quv yilida belgilangan chora-tadbirlar: Avvalgi o‘quv yilida amalga oshirilgan yillik monitoringda belgilab olingan chora-tadbirlar yuzasidan amalga oshirilgan ishlarni bayon eting.	

Eslatma:
Berilgan javob avvalgi o‘quv yilida amalga oshirilgan yillik monitoring hisobotiga bog‘lanishi kerak. Agar chora-tadbirlar belgilanmagan yoki amalga oshirilmagan bo‘lsa, sababini tushuntiring.

(So‘zlar cheklovi: 500 ta)

2. Institutsional ustuvor yo‘nalishlar: Talabaga yo‘naltirilgan o‘qitish, ta’lim olish va assessment, ilmiy-tadqiqot olib borish strategiyalari
Mavjud amaliyotni universitning o‘qitish, ta’lim olish, assessment, ilmiy-tadqiqot strategiyalari bilan muvofiq kelishi borasida amalga oshirilgan ishlarni bayon eting.

Bakalavr va magistratura ta’lim dasturlari uchun:
Mavjud amaliyotni universitetning o‘qitish, ta’lim olish va assessment strategiyasiga muvofiqlashtirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarni bayon eting.

Strategiyaga moslashtirish bo‘yicha ko‘rilgan choralar qay darajada to‘liq amalga oshirilganini ko‘rsatib o‘ting. Bunda quyidagi savollarga javob bering.

- Universitet prinsiplariga moslashtirish maqsadida ta’lim dasturidan hamda moduldan kutilgan natijalarga qanday o‘zgarishlar kiritildi? Hali ham qanday o‘zgarishlar kiritilishi kerak va bunga qancha muddat kerak?

- Universitet prinsiplariga moslashtirish maqsadida ta’lim dasturi modullari sillabulariga va o‘quv materiallariga qanday o‘zgarishlar kiritildi? Hali ham qanday o‘zgarishlar kiritilishi kerak va bunga qancha muddat kerak?

- Universitet prinsiplariga moslashtirish maqsadida assessmentga qanday o‘zgarishlar kiritildi? Hali ham qanday o‘zgarishlar kiritilishi kerak va bunga qancha muddat kerak?

- Talabalarning assessment bo‘yicha bajargan ishlariga professor-o‘qituvchilar tomonidan berilgan fikr-mulohaza, taqriz (feedback)larning sifatini yaxshilash uchun qanday strategiyalar mavjud? Talabalar berilayotgan fikr-mulohaza, taqriz (feedback)larni qanday baholamoqdalar?

Imkoni bo‘lsa, mazkur o‘quv yiliga taalluqli ma’lumotlarni avvalgi o‘quv yiliga taalluqli ma’lumot bilan taqqoslang.

(So‘zlar cheklovi: 500 ta)

Oliy ta’limdan keyingi ta’lim dasturlari uchun eslatma:

Mavjud amaliyotni universitetning ilmiy-tadqiqot bilan bog‘liq strategiyasiga muvofiqlashtirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarni bayon eting.

Strategiyaga moslashtirish bo‘yicha ko‘rilgan choralar qay darajada to‘liq amalga oshirilganini ko‘rsatib o‘ting. Bunda quyidagi savollarga javob bering.

- Oliy ta’limdan keyin ta’lim dasturlari universitet tomonidan belgilab olingan ustuvor tadqiqot sohalariga qanday hissa qo‘shmoqda?

- Oliy ta’limdan keyingi ta’lim dasturlari orqali amalga oshirilayotgan tadqiqot

ishlari universitetning reputatsiyasining yuksalishiga qanday ta’sir ko‘rsatmoqda?

- Oliy ta’limdan keyingi ta’lim dasturlari doirasida amalga oshirilgan tadqiqot ishlari tashqi manfaatdor taraflar bilan hamkorlikni rivojlantirishga ta’sir ko‘rsatdimi?

(So‘zlar cheklovi: 500 ta)

3. Institutsional ustuvor yo‘nalish: Ta’lim oluvchilarning sifatni ta’minlash jarayonidagi ishtirokini ta’minlash.

Talabalarni sifatni ta’minlash jarayonidagi ishtirokini ta’minlash haqidagi nizom talablariga muvofiq keladigan ta’lim oluvchilarning sifatni ta’minlashdagi ishtiroki bo‘yicha yondashuv va uning samaradorligini bayon eting.

Eslatma:
Quyidagi savollarga javobni ham kiriting:

- Ta’lim oluvchilarga ta’lim olish va o‘qitish (dasturni o‘zlashtirish– oliy ta’limdan keyingi ta’lim uchun) jarayoniga hissa qo‘shish uchun ularga qanday imkoniyatlar berildi va ularga bu imkoniyatlar haqida qanday ma’lum qilindi?

- Ta’lim oluvchilarning fikr-mulohazalarini qay darajada inobatga olinganini ularga yetkazish uchun qanday usullar qo‘llandi?

Berilgan javob ta’lim oluvchilar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rov, ta’lim dasturlari va modullarning ta’lim oluvchilar tomonidan baholanishi bo‘yicha natijalar, sho‘ba va talabalar qo‘mitasi, fakultet va talabalar qo‘mitasida bildirilgan fikr-mulohazalar tahlili bayon etilishi kerak. Imkoni bo‘lsa, joriy yildagi ma’lumotlarni avvalgi o‘quv yiliga taalluqli ma’lumotlar bilan solishtirish so‘raladi.

(So‘zlar cheklovi: 500 ta)

4. Institutsional ustuvor vazifa: Ta’lim oluvchilarni qo‘llab-quvvatlash
Ta’lim oluvchilarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmining samaradorligini bayon eting.

Bakalavr va magistratura ta’lim dasturlari bo‘yicha eslatma:
Javobda ta’lim dasturi universitetning Talabalarni qo‘llab-quvvatlash haqidagi nizomiga akademik yo‘naltirish va talabalarni qo‘llab-quvvatlash nuqtai nazarida muvofiq kelishini isbotlovchi dalilni keltiring.

Javobda talabalar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovlar, sho‘ba va talabalar qo‘mitasi, fakultet va talabalar qo‘mitasi majlisi bayonnomlari, ta’lim dasturi bo‘yicha ta’labalarning fikr-mulohazasi, shu jumladan ta’lim dasturlarining o‘qitilishi va modullarni baholash natijalarining tahlili kiritilishi kerak. Imkoni bo‘lsa joriy yildagi ma’lumotlarni avvalgi o‘quv yiliga taalluqli ma’lumotlar bilan solishtirish so‘raladi.

(So‘zlar cheklovi: 500 ta)

Oliy ta’limdan keyingi ta’lim dasturlari bo‘yicha eslatma:
Javobda oliy ta’limdan keyingi ta’limda ta’lim oluvchilarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan tizimning samaradorligi bo‘yicha dalillar keltirilishi (bularga ilmiy rahbarlar uchun trening, yillik monitoringni olib borish va dissertatsiya himoyasi bo‘yicha tanishtiruv va treninglar o‘tkazish, kareyera imkoniyatlari masalasida qo‘llab-quvvatlash) hamda tadqiqotchilarning ijtimoiy muhiti, xususan, ularning o‘zaro va universitet bilan jamoaviy ruhini shakllantirishga doir yondashuvlar hamda ularning dasturdan qoniqish darajasi bo‘yicha dalillar keltirilishi kerak.

Javobda ta’lim oluvchilar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rov natijalari hamda kengash majlisining bayonnomalaridan kelib chiqadigan ma’lumotlar tahlil etilishi kerak. Imkoni bo‘lsa joriy yildagi ma’lumotlarni avvalgi o‘quv yiliga taalluqli ma’lumotlar bilan qiyoslash so‘raladi.

(So‘zlar cheklovi: 500 ta)

5. Ta’lim oluvchilarning natijalari
Ta’lim oluvchilarga doir assessment, kursdan-kursga o‘tish hamda dastur bo‘yicha ko‘rsatkichlarini bayon eting.

Bakalavr va magistratura ta’lim dasturlari bo‘yicha eslatma:
Javobda dasturdagi assessment, kursdan-kursga o‘tish va ta’lim dasturi bitiruvchilarning ko‘rsatkichlari (imtiyozli diplom bilan tamomlaganlar soni), natijalarga ijobiy yoki salbiy ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan omillar tahlili bayon etilishi kerak.

Ta’lim dasturi bo‘yicha talabalarning o‘zlashtirish natijalari ularning demografik kesimida farqlanishi yoritib berilishi kerak.

Javobda talabalarning kursdan kursga o‘tishi va o‘zlashtirish ko‘rsatkichlariga doir ma’lumotlar, shuningdek talabalar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rov natijalari, sho‘ba va talabalar hamda fakultet va talabalar qo‘mitasi majlisi bayonnomalari hamda talabalar tomonidan ta’lim dasturi va modullarning o‘qitilishini baholash natijalarining tahlili keltirilishi kerak.

(So‘zlar cheklovi: 500 ta)

Oliy ta’limdan keyingi ta’lim dasturlari bo‘yicha eslatma:
Javobda ta’lim oluvchilarning yillik rejalarining bajarilish holati, oliy ta’limdan keyingi ta’limni muvaffaqiyatli tamomlash darajasi, belgilangan natijaga erishishga ijobiy yoki salbiy ta’sir qilayotgan omillarning tahlili ko‘rsatilishi kerak.

Dastur bo‘yicha ta’lim oluvchilarning natijalaridagi farqlar ularning demografik kesimida tahlil etilishi kerak.

Javobda ta’lim oluvchilarning keyingi bosqichga o‘tishi, muvaffaqiyatga erishish ko‘rsatkichlari, shuningdek dasturning ta’lim oluvchilar tomonidan baholash natijalariga doir ma’lumotlar tahlil etilishi kerak. Imkoni bo‘lsa, joriy yildagi ma’lumotlarni avvalgi o‘quv yiliga taalluqli ma’lumotlar bilan solishtirish so‘raladi.

(So‘zlar cheklovi: 500 ta)

6. Mazkur o‘quv yilida qaysi sohalar/nimalar yaxshi yo‘lga qo‘yildi/ishladi?
Fakultet miqyosida va undan tashqari keng tatbiq etish mumkin bo‘lgan ijobiy tajribaga aniq misollar keltiring.

Eslatma:
Javobda, xususan, ta’lim dasturi bilan bog‘liq innovatsion yoki kreativ yondashuvlar yoki universitetning yangi nizomlari va strategiyalarida nazarda tutilgan talablarni muvaffaqiyatli bajarishga sabab bo‘lgan yondashuv ko‘rsatilishi kerak.

(So‘zlar cheklovi: 500 ta)

7. Nimalar yaxshiroq ishlashi mumkin edi/yanada takomillashtirilishi kerak?
Takomillashtirish kerak bo‘lgan sohalar, shuningdek har qanday qiyinchiliklar va to‘siqlarni bayon eting.

Eslatma:
Javobda ta’lim dasturi, kafedra, fakultet yoki universitet miqyosida takomillashtirish kerak bo‘lgan sohalar ko‘rsatib o‘tilishi mumkin.

(So‘zlar cheklovi: 500 ta)

8. Hisobotda bayon etilishi yoki alohida ajratib ko‘rsatib o‘tilishi istalgan, ammo yuqoridagi qismlarda alohida so‘rab o‘tilmagan ma’lumotlar bo‘lsa, ushbu qismga kiritish mumkin.

(So‘zlar cheklovi: 500 ta)

9. Kelasi o‘quv yili uchun chora-tadbirlar.
Kelasi o‘quv yilida amalga oshirish rejalashtirilayotgan chora-tadbirlarni bayon eting. Har bir chora-tadbir bayon etilganda quyidagilar inobatga olinishi SHART:

- chora-tadbirning aniq tavsifi;
- chora-tadbirni amalga oshirishning aniq muddati;
- individual va jamoaviy majburiyatlar;
- chora-tadbir natijalarini baholash metodining tavsifi;
- chora-tadbirni amalga oshirish uchun har qanday zarur resurslar.

Bakalavr ta’lim dasturi bo‘yicha

Dekan	**imzo**	**FISH**
Akademik department boshlig‘i	**imzo**	**FISH**
Ta’lim dasturi yo‘nalishi/Ta’lim dasturi rahbari	**imzo**	**FISH**

Magistratura ta’lim dasturi bo‘yicha

Huquqiy tadqiqotlar oliy maktabi direktori	**imzo**	**FISH**
Magistratura bo‘limi boshlig‘i	**imzo**	**FISH**
Ta’lim dasturi rahbari	**imzo**	**FISH**

Oliy ta’limdan keyingi ta’lim dasturi bo‘yicha

Huquqiy tadqiqotlar oliy maktabi direktori	**imzo**	**FISH**
Ta’lim dasturi rahbari	**imzo**	**FISH**

Yillik monitoring va davriy tahlil
haqidagi nizomga
2-ilova

TDYU ma’muriy bo‘linmalar faoliyatining yillik monitoringi hisoboti shakli

Hisobotning qamrov doirasi. Talabalarning ta’lim olish jarayoniga ko‘maklashadigan barcha ma’muriy tarkibiy bo‘linmalar faoliyati yil davomida monitoring qilinadi va monitoring hisoboti Tashkiliy nazorat va strategik rejalashtirish boshqarmasiga taqdim etiladi. Boshqarma tomonidan Universitet kengashiga umumlashtiruvchi axborot kiritiladi.

Hisobot hajmi. Yillik monitoringi hisoboti qisqa tarzda yozilishi kerak (tegishli shakllarda so‘zlar soniga o‘rnatilgan cheklovga qarang). Hisobot shaklini to‘ldirishdan asosiy maqsad ma’muriy tarkibiy tuzilmalar o‘z faoliyatida talabalarning ta’lim olishiga ko‘maklashadigan muhim va e’tiborga molik jihatlarni aniqlashlari, shu jumladan universitet miqyosida va quyi bo‘g‘inda ilg‘or tajriba va takomillashtirish kerak bo‘lgan sohalarni aniqlab olishlariga erishishdir.

Hisobotni shakllantirishda ma’lumotlar (data)dan foydalanish. Hisobotda tegishli ma’lumotlar refleksiya (chuqur mushohada)dan o‘tkazilib tahlil etilishi kerak. Hisobotda ma’muriy tarkibiy bo‘linma xizmatidan foydalanishga doir ma’lumotlar va bunda talabalarning demografik ma’lumotlari aks ettirilishi kerak. Shuningdek, o‘rinli hollarda, tegishli xizmatlardan talabalarning qoniqishiga doir miqdoriy va sifatga daxldor ma’lumotlar *(quantitative and qualitative data)* hisobga olinishi kerak. Imkoni bo‘lsa, hisobotda avvalgi o‘quv yilida amalga oshirilgan yillik monitoring natijalari inobatga olinishi kerak. Tegishli hollarda ma’muriy xizmatlar bilan bog‘liq bo‘lgan ta’lim dasturiga qabul, talabalarning kursdan kursga o‘tishi, o‘qishni davom ettirayotgan, talabalar safidan chetlashtirilgan va o‘z ixtiyoriga binoan talabalar safini tark etgan, bitiruvchilarning natijalariga doir ma’lumotlar tahlil etiladi. Xususan, ilg‘or tajriba qanday tarzda keng tatbiq etilgani va tegishli choralar qanday tarzda ko‘rilgani haqida ma’lumot bildirilishi kerak.

Hisobot individual talabaga doir ma’lumotni aks ettirmasligi kerak.

Hisobotni to‘ldirish muddati: Tashkiliy nazorat va strategik rejalashtirish boshqarmasi tomonidan belgilab beriladi.

Ma’muriy tarkibiy bo‘linma:	
Hisobotni shakllantirishganlar haqida ma’lumot (hissa qo‘shganlar bilan birga):	
O‘quv yili:	
Hisobot sanasi:	

1. Avvalgi o‘quv yilida begilangana chora-tadbirlar:

Avvalgi o‘quv yilida amalga oshirilgan yillik monitoringda belgilab olingan chora-tadbirlar bo‘yicha qilingan ishlarni bayon eting.

Eslatma:

Berilgan javob avvalgi o‘quv yilida amalga oshirilgan yillik monitoring hisobotiga bog‘lanishi kerak. Agar chora-tadbirlar begilanmagan yoki amalga oshirilmagan bo‘lsa, sababini tushuntiring.

(So‘zlar cheklovi: 400 ta)

2. Intitutsional ustuvor yo‘nalish: Talabalarni qo‘llab-quvvatlash

Mavjud amaliyotni universitning Talabalarni qo‘llab-quvvatlash haqidagi nizomi bilan muvofiq kelishi borasida amalga oshirilgan ishlarni bayon eting.

Eslatma:

Faoliyatni universitet strategiyasiga moslashtirish bo‘yicha ko‘rilgan choralar qay darajada to‘liq amalga oshirilganini ko‘rsatib o‘ting. Bunda quyidagi savollarga javob bering.

- Talabalarni qo‘llab-quvvatlash haqidagi nizom talablariga ma’muriy tarkibiy bo‘linma faoliyatini moslashtirish uchun faoliyatda qanday o‘zgarishlar qilindi? Hali ham qanday o‘zgarishlar kiritilishi kerak va bunga qancha muddat kerak?

- Ta’limdan ko‘zlangan natijalarni yaxshilanishiga sizning bo‘linmangiz qanday hissa qo‘shmoqda? Natijalarni bayon eting va bunda bo‘linmaning ta’sirini isbotlovchi dalilni keltiring.

Imkoni bo‘lsa, mazkur o‘quv yiliga taalluqli ma’lumotlarni avvalgi o‘quv yiliga taalluqli ma’lumot bilan solishtiring.

(So‘zlar cheklovi: 400 ta)

3. Institutsional ustuvor yo‘nalish: Ta’lim oluvchilarni sifatni ta’minlash jarayoniga jalb etish

Talabalarni sifatni ta’minlash jarayoniga jalb etish haqidagi nizom talablariga muvofiq keluvchi yondashuv va uning samaradorligini bayon eting.

Eslatma:

Quyidagi savollarga javobni ham kiriting:

- Ma’muriy tarkibiy bo‘linma tomonidan ta’lim oluvchilarni samarali qo‘llab-quvvatlash yoki ma’muriy jarayonlarga ham hissa qo‘shishga imkon berish uchun ularga qanday imkoniyat berildi? Talabalarga bu imkoniyatlar qanday ma’lum qilindi?

- Talabalarning fikr-mulohazalari qay darajada inobatga olingani haqida ma’lumot ularga yetkazishda qanday usullar qo‘llandi?

Berilgan javobda ta’lim oluvchilar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rov, ta’lim dasturlari va modullarning talabalar tomonidan baholanishi bo‘yicha natijalar, tegishli qo‘mitalar, xususan, fakultet-talabalar qo‘mitasida bildirilgan fikr-mulohazalarning tahlili bayon etilishi kerak. Imkoni bo‘lsa joriy yildagi ma’lumotlarni avvalgi o‘quv yiliga taalluqli ma’lumotlar bilan solishtirish so‘raladi.

(So‘zlar cheklovi: 400 ta)

4. Institutsional ustuvor vazifa: tarkibiy tuzilmalarga ko‘rsatiladigan xizmatlar

Ma’muriy tarkibiy bo‘linma tomonidan universitetning boshqa tarkibiy tuzilmalari va xodimlariga ularning talabalarni ta’lim olish tajribalariga ta’sir ko‘rsatuvchi faoliyatini yaxshilash uchun qanday samarali xizmatlar ko‘rsatildi? (masalan, treninglar o‘tkazish, hamkasblarni rivojlantirishga qaratilgan tadbirlar tashkil etish, ichki tizim va jarayonlarni tartibga solishga yordamlashish va h.z.)

Eslatma:

Javobda hamkasblar bilan birgalikda ta’lim oluvchilarning ta’lim olish tajribasini yaxshilash maqsadida amalga oshirilgan ishlar (masalan, hamkasblarni rivojlantirishga qaratilgan seminar, trening yoki professional rivojlanishga qaratilgan tadbirlarni o‘tkazish, tegishli ichki jarayonlar va tizimni mustahkamlash, tadbirlar yoki tashabbuslar yuzasidan hamkorlik qilish va hokazo)ni qayd etish kerak.

(So‘zlar cheklovi: 400 ta)

5. Mazkur o‘quv yilida qaysi sohalar/nimalar yaxshi yo‘lga qo‘yildi/ishladi?

Ma’muriy tarkibiy bo‘linmadan tashqari keng tatbiq etish mumkin bo‘lgan yaxshi amaliyotga aniq misollar keltiring.

Eslatma:

Javobda dasturdagi innovatsion yoki kreativ tajribalarni, shuningdek, universitetning amaldagi va yangi strategiyalari, nizomlari talablariga muvofiq keluvchi yondashuv va/yoki tajribangizning muvaffaqiyatli jihatlarini keltirib o‘tishingiz kerak. *(So‘zlar cheklovi: 400 ta)*

6. Nimalar yaxshiroq ishlashi mumkin edi/yanada takomillashtirilishi kerak? Takomillashtirish kerak bo‘lgan sohalar, shuningdek har qanday qiyinchiliklar va to‘siqlarni bayon eting.
Eslatma: Javobda ma’muriy tarkibiy bo‘linma yoki universitet miqyosida takomillashtirish kerak bo‘lgan sohalar ko‘rsatib o‘tilishi mumkin. *(So‘zlar cheklovi: 400 ta)*

7. Hisobotda bayon etilishi yoki alohida ajratib ko‘rsatib o‘tilishi istalgan, ammo yuqoridagi qismlarda alohida so‘rab o‘tilmagan ma’lumotlar bo‘lsa, ushbu qismga kiritish mumkin. *(So‘zlar cheklovi: 400 ta)*

10. Kelasi o‘quv yili uchun chora-tadbirlar. Kelasi o‘quv yilida amalga oshirishni rejalashtirilayotgan chora-tadbirlarni bayon eting. Har bir chora-tadbir bayon etilganda quyidagilar inobatga olinishi SHART: • chora-tadbirning aniq tavsifi; • chora-tadbirni amalga oshirishning aniq muddati; • individual va jamoaviy majburiyatlar; • chora-tadbir natijalarini baholash metodining tavsifi; • chora-tadbirni amalga oshirish uchun har qanday zarur resurslar.

Ma’muriy tarkibiy bo‘linma **imzo** **FISH**

Yillik monitoring va davriy tahlil
haqidagi nizomga
3-ilova

Davriy monitoring guruhi uchun namunaviy tashrif dasturi

Vaqt	1 kun
08:30 – 09:30	Davriy monitoring guruhining majlisi
09:30 – 10:30	**1-uchrashuv.** Ta’lim dasturi yetakchilari bilan uchrashuv **Ishtirokchilar ro‘yxati:**
10:30 – 11:00	Davriy monitoring guruhining majlisi
11:00 – 12:30	**2-uchrashuv.** Professor-o‘qituvchilar bilan uchrashuv **Ishtirokchilar ro‘yxati: [10 nafardan ko‘p bo‘lmagan]**
12:30 – 13:30	Davriy monitoring guruhining majlisi va tanaffus
13:30 – 14:30	**3-uchrashuv.** Talabalar va bitiruvchilar vakillaridan iborat guruh bilan uchrashuv **Ishtirokchilar ro‘yxati: [jami 12 nafar talaba va bitiruvchilardan ko‘p bo‘lmagan]:**
14:30 – 15:00	Davriy tahlil guruhining majlisi
15:00 – 16:00	**4-uchrashuv.** Ta’lim dasturini yuritish bilan bog‘liq jarayonga ko‘maklashadigan ma’muriy xodimlar bilan uchrashuv **Ishtirokchilar ro‘yxati: [10 nafardan ko‘p bo‘lmagan]**
16:00 – 16:15	Tanaffus
16:15 – 17:15	**5-uchrashuv.** Tashqi manfaatdor taraflar bilan uchrashuv **Ishtirokchilar ro‘yxati: [10 nafardan ko‘p bo‘lmagan]**
17:15	Ta’lim dasturi yetakchilari bilan yakuniy suhbat
17:30	Tashrif yakuni

Tashrif jarayonida zarurat hollarda darslar ham kuzatiladi.